

*Mardonova Mashhura Murtoza qizi
Toshkent Davlat Texnika universiteti
Mexanika muhandisligi fakultetiti
Metallar texnologiyasi yo'nalishi
Talabasi.*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriyning o'zbek romanchiligidagi o'rni va xizmatlari tahlil etiladi. Muallifning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari o'zbek adabiyotida yangi sahifa ochganligi, ularning milliy o'zlikni anglash va adabiy tafakkurning rivojlanishiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, maqolada Qodiriyning asarlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq holda tahlil qilinib, uning uslubi va adabiy merosi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiri, o'zbek romanchiligi, "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", milliy adabiyot, realizm, tarixiy roman, adabiy meros.

Abdulla Qodiri 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasini, o'zbek romanchiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Avval musulmon maktabida, rus-tuzem maktabida, Abulqosim shayx madrasasida ta'limga olgan; Moskvadagi adabiyot kursida o'qigan. Eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi, «Oziq ishlari» gazetasining muharriri, Kasabalar sho'rosining sarkotibi, «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi. «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir. «Uloqda» hikoyasi, «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydir?» kabi satirik hikoyalar muallifi. «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari, «Obid ketmon» qissasi yozuvchining ulkan mahoratini o'zida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning «Fizika», N. V. Gogolning «Uylanish», A. P. Chexovning «Olchazor» asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiri 1926-yilda «Mushtum»da bosilgan «Yig'indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937-yilning 31-dekabrida esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktyabrda Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956-yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilan mukofotlangan (1994).

O'zbek adabiyotida romanchilik janrining shakllanishi va rivojlanishida Abdulla Qodiriyning o'rni beqiyosdir. U o'zining ijodi bilan nafaqat yangi janrni yaratdi, balki

o‘zbek adabiyotiga milliy tarix va ijtimoiy muammolarni aks ettirish an’analarini ham olib kirdi. Uning asarlari millatning o‘zlikni anglashida muhim rol o‘ynagan va bugungi kungacha dolzarbligini yo‘qotmagan.

Abdulla Qodiriyning romanchilik faoliyati Qodiriy o‘zbek romanchiligidagi asos solgan ijodkor sifatida tanilgan. Uning “O‘tkan kunlar” romani 1926-yilda chop etilib, o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janrining shakllanishiga asos soldi. Ushbu asar orqali muallif Turkiston tarixidagi murakkab davrlarni yoritib, milliy ong va madaniy xotiraning tiklanishiga xizmat qildi. Shuningdek, “Mehrobdan chayon” romani ham ijtimoiy muammolarni qalamga olgan bo‘lib, o‘zbek xalqining an’anaviy qadriyatlari va zamonaviy hayot o‘rtasidagi ziddiyatni yoritishga qaratilgan.

Adabiy uslub va ta’sir Qodiriyning romanlarida realizm va tarixiy haqiqat uyg‘unlashgan. Uning uslubi hayotiylik, jonli dialoglar va aniq tasvirlar bilan ajralib turadi. Shuningdek, asarlarida xalq og‘zaki ijodining unsurlaridan keng foydalanilgan bo‘lib, bu ularning o‘quvchilarga yanada yaqin bo‘lishini ta’minlagan. Qodiriyning ijodi keyingi avlod yozuvchilariga katta ilhom bag‘ishlab, o‘zbek romanchiligidagi rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

“O‘tkan kunlar” romanining ma’no-mundarija doirasi niho-yatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasiromanningasosiy pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqlolli, faravonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi. “O‘tkan kunlar” bamisol ulkan va tiniq ko‘zgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urfatatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq, ravshan gavdalantiriladi. Romandagi uchlik – oshiq, mashuqa va ag‘yor, bir qarashda, an’anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbat, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo‘r mahorat bilan tasvir etiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebah” – ishq-muhabbat tuyg‘usiga doir inja tafsilotlar kitobxon ni hayajonga soladi; Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojeaviy sahnalar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Abdulla Qodiriy Otabek bilan Kumushning ishq tarixini yozar ekan, ayni damda o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g‘oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi. Adib romandagi markaziy obrazlardan biri – Yusufbek hoji zimmasiga katta yuk yuklaydi. U o‘zaro mahalliy ziddiyatlarning zararini yaxshi biladi, qipchoqni qig‘inini qoralaydi, aksincha, bir millatning ikki qavmini ularni “chin yovg‘a

beriladigan kuch” uchun ittifoqchi sanaydi. Noo‘rin isyonga otlanayotgan olomonga qarata: “... Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘ris bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimga yetgan ko‘raman”, deb aytadi. Biroq hojining istagiga qarshi qirg‘in bo‘lib o‘tadi. Buning ustiga ustak Otabek ham otasining bu ishda qo‘li borligidan shubhalanib hojining ko‘ngliga ozor yetkazadi. Yusufbek hojining o‘zini oqlab masalaning tub mohiyatini tushutirgandan so‘ng aytgan quyidagi so‘zlari bu shaxsning chindan ham yirik-ulug‘ ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Xulosa Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi sifatida milliy adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Uning asarlari bugungi kungacha o‘quvchilarni tarix, milliy ong va insoniy qadriyatlar haqida o‘ylashga undaydi. Qodiriy ijodi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u hali ham o‘zbek adabiyotining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, birinchi o‘zbek romani egasi, iste’dodli adib Abdulla Qodiriyning asarlari o‘zbek jadid adabiyoti tarixida mumtoz o‘rinni egallaydi. Uning ayrim hikoyalari, xususan, “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari nafaqat o‘zbek, balki turkiy xalqlar, umuman, jahon adabiyotining go‘zal namunalari qatoridan joy olishga munosib asarlardir. Adibning bu romanlarini turkiy xalqlar adabiyotidagi jadidona pafoslasi asarlar bilan qiyoslab o‘rganishga ham zarurat bor, albatta.“O‘tkan kunlar”ni ingliz tiliga o‘girgan amerikalik tarjimon Mark Riz e’tirofiga ko‘ra: “O‘tkan kunlar” romani bosh qahramoni “Otabek – jadid” edi. U yana ta’kidlaydiki, Abdulla Qodiriy o‘z romani orqali jadid sifatida o‘z zamonasida “kelajak avlodni yaqinlashib kelayotgan xavf-xatardan” ogohlantiradi ham.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘.Nosirov. Ijodkorshaxs badiiy uslub, avtor obrazi. Toshkent: Fan, 1981. 109-110-betlar.
2. A.Qodiriy. “O‘tgan kunlar” Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. 47-bet.
3. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Avtor nutqi va personaj nutqi. Toshkent: O‘qituvchi, 1980. 199 bet.